



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 24-oktabr

148-11-163-F/25

Farg'ona tumani hokimligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 7-avgustdagi PF-129-sonli Farmoniga muvofiq tuman hokimligi boshqaruv xodimlarining umumiy ish stajini belgilash, faoliyatining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlariga (KPI) erishganligi uchun beriladigan lavozim maoshiga har oylik ustamalar miqdori va bonus to'lovlarini tasdiqlash maqsadida hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-, 21¹-moddalariga asosan:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 7-avgustdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, tumanlar va Toshkent shahri hamda tuman (shahar) hokimliklari xodimlarining mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF129-sonli Farmoni ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur farmonga asosan bonus va eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) to'lovlarni o'z vaqtida to'lash choralari ko'rish maqsadidagi Farg'ona tuman hokimining 2025-yil 23-avgustdagi 196-11-163-Q/25-sonli Qarori inobatga olinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (O.Abduraximov), tuman hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (I.Xo'janazarov) O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, Farg'ona viloyati hokimining qaror, farmoyish va topshiriqlari ijrosini ta'minlashda o'z hissasini qo'shib kelayotganliklarini inobatga olib, joriy yilning III choragi yakuni bo'yicha tuman hokimligi boshqaruvi apparatining barcha

xodimlariga xarajatlar smetasidagi bonus to'lovlari uchun rejalashtirilgan mablag'lari hisobidan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining ikki barobari miqdorida rag'batlantirilsin.

4. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (Sh.Jamolova)ga belgilangan tartibda to'lovlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu farmoyish ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari O.Abduraximov zimmasiga yuklansin.

Farg'ona tuman hokimi



Inomov X.T